TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

JO‘RAYEV MA’RUF TO‘RAQUL O‘G‘LI

KOMPYUTER TARMOQLARINING MA’LUMOTLAR OQIMINI MONITORING QILISHNING ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI

05.01.04 - Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 004.042

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

JO‘RAYEV MA’RUF TO‘RAQUL O‘G‘LI

KOMPYUTER TARMOQLARINING MA’LUMOTLAR OQIMINI MONITORING QILISHNING ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI

05.01.04 - Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5882 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tuit.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kabulov Anvar Vasilovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Djumanov Jamoljon Xudaykulovich** texnika fanlari doktori, professor
	Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12. T.01.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «12» fevral da soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; faks: (99871) 238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (406 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «2» fevral kuni tarqatildi.
(2026 yil «2» fevral dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi).

M.M.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlar doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlar doktori, professor

Dj.B.Sultanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlar doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar oqimi va ularni tashkil etuvchi paketlarni monitoring qilish usullari axborot tizimlarini samarali boshqarish hamda ularning ishonchliligini ta’minlash muammosi alohida ahamiyat ega. Tarmoq oqimini kuzatish jarayonida tizimli tahlil va statistik qayta ishlash metodlari qo‘llanilishi tarmoq samaradorligini oshirish bilan birga, uzatilayotgan ma’lumotlarning yaxlitligi va ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, tarmoq paketlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan ilg‘or algoritmlar va dasturiy ta’minot majmualari yordamida axborot tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va nosozliklar erta bosqichda aniqlanishi va ularni bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday tizimlarda paketlarni qayta ishlash va qoidalarga asoslangan tarmoq monitoringi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Jahon tajribasiga asosan kompyuter tarmoqlarining ma’lumotlar oqimini monitoring qilish natijalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tarmoq oqimlarini tahlil qilish, qayta ishlash, algoritmlar va dasturiy vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan vazifalar dolzarbdir. Tarmoq oqimlarini monitoring qilish algoritmlari real vaqt rejimida tarmoqlardagi kiruvchi va chiquvchi oqimlarni kuzatib, tarmoq holatini tahlil qilish imkonini beradi. Axborot tizimlarida tarmoq oqimlarini samarali boshqarish va nazorat qilish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, monitoring dasturlari, tarmoq barqarorligini ta’minlash vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari asosida turli ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan tarmoq oqimlarini tashkil etuvchi paketlarni tahlili qilishda asosiy yondashuvlar paketlarni yuzaki tahlili, paketlarni o‘rta darajadagi tahlili va paketlarni chuqur tahlili hisoblanadi. Paketlarni tahlil qilishda asosan qayta ishlanmagan paketlar ustida tahlil amalga oshiriladi. Bu esa tarmoq holatini aniqlashda samaradorlikni pasaytiradi va natijada tarmoq oqimlari monitoringiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli paketlarni qayta ishlash algoritmlarini va tarmoq oqimlarini monitoring qilish qoidalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda raqamli axborot hajmi jadal sur’atlar bilan ortib bormoqda. Kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar oqimini monitoring qilish talablari va xususiyatlarini hisobga olgan holda tarmoq oqimlarini monitoring qilish algoritmlari va qoidalari hozirgi vaqtda yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu ish tarmoq oqimlarini monitoring qilish algoritmlari va dasturlarini ishlab chiqishning ilmiy-texnik muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Respublikamizda davlat dasturlari va strategiyalarini amalga oshirish asosida kompyuter tarmoqlarining ishonchliligini ta’minlash hamda mahalliy dasturiy vositalar bozorini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini

nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi ham ilmiy va amaliy jihatdan muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida, xususan, AQSh, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va boshqa davlatlarda axborot tizimlarida tarmoq ma’lumotlar oqimini monitoring qilish va paket ma’lumotlarini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, R.I.Pasechnikov, D.V.Kostin, K.Zhou, O.I.Sheluxin, R.A.Sudarikov, H.Kim, K.C.Claffy, M.Fomenkov, G.Jain, D.Barman, N.Medhi, M.Faloutsos, M.Tahboush, V.Pallavi va boshqalarning ilmiy ishlarida ham ushbu masalalar tadqiq qilingan.

Respublikamizda esa bu muammolarni hal qilishda yetakchi olimlaridan Sh.X.Fozilov, T.F.Bekmuratov, M.M.Musayev, X.N.Zaynidinov, U.R.Xamdamov, K.A.Tashev, Sh.R.G‘ulomov, J.X.Djumanov va boshqa olimlar o‘zlarining katta hissasini qo‘shgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijalariga ko‘ra, kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar oqimini monitoring qilish, sinflarga ajratish algoritmlari va kutilmagan holatlarni aniqlash talablarini hisobga olgan holda, kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar oqimlarni monitoring qilish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida olib borilgan № F-OT-2021-248 “Funksional jadvallar asosida axborotni himoya qilishni ta’minlashda tahdidlarni aniqlash, identifikasiya qilish va zararsizlantirishning intellektual usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish” (2022-2024) ilmiy-tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar oqimini monitoring qilishning produksion qoidalarga asoslangan algoritmlari va dasturiy vositasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

tarmoq oqimidan informativ belgilarni ajratib olish, oqim atributlarini hisoblash, paketlarni sinflarga ajratishda tasniflash va ustuvorlik algoritmlarini ishlab chiqish;

tarmoq oqimidagi kutilmagan holatlarni aniqlash uchun statistik ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirgan holda uchta holatdan iborat Markov zanjirini taklif etish;

Petri tarmoqlari yordamida TCP protokolining ishonchliligini modellashtirish, dekompozitsiya algoritmi asosida matematik ta’minotini ishlab chiqish;

produksion qoidalar asosida tarmoq oqimlarini monitoring qilish va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun bilimlar bazasi va dasturiy vositani yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida axborot tizimlaridagi kompyuter tarmoqlarining ma’lumotlar oqimi va tarmoq oqimini monitoringini olib boruvchi dasturiy vositalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tarmoq oqimini real vaqt rejimida tahlil qilish, tasniflash, nazorat qilish va boshqarishda qo‘llaniladigan matematik usullar, algoritmlar va dasturiy vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida tarmoq oqimi ma’lumotlarini qayta ishlash, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, sinflashtirish usullari va statistik tahlil usullari hamda dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarmoq oqimidan informativ belgilarni ajratib olish hamda oqim atributlarini hisoblash asosida paketlarni sinflarga ajratishning tasniflash va ustuvorlik algoritmlari ishlab chiqilgan;

tarmoq oqimidagi kutilmagan holatlarni aniqlash uchun statistik ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirgan holda uchta holatdan iborat Markov zanjiri taklif etilgan;

Petri tarmog‘i asosida tarmoqdagi kutilmagan uzilishlarni aniqlashning matematik ta’minoti ishlab chiqilgan;

produksion qoidalar asosida tarmoq oqimlarini monitoring qilish va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun bilimlar bazasi va dasturiy vosita yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma’lumotlar oqimini monitoring qilish va qayta ishlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

mavjud va ishlab chiqilgan algoritmlar asosida tarmoq oqimlaridagi kutilmagan holatlarni aniqlash va tasniflashni amalga oshiruvchi dasturiy ta’minot yaratilgan;

tarmoq oqimlarini produksion qoidalar asosida tahlil qilishda qoidalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tarmoq holatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarmoq oqimini tahlil qilishda ishlab chiqilgan algoritmlarning to‘g‘riligi, o‘rganilayotgan tarmoq oqimi tahlil natijalarining umumqabul qilingan mezonlar asosida qiyosiy tahlili, shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy vosita yordamida olingan tajriba natijalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, tarmoq oqimini real vaqt rejimida tahlil qilish bo‘yicha kompleks yondashuv, algoritmlari va dasturiy vosita ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yaratilgan dasturiy vosita yordamida axborot tizimlarida ma’lumotlar oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, tarmoq faoliyatidagi nosozliklarni erta aniqlash va tizim barqarorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan tarmoq oqimi ma’lumotlarini monitoring qilish algoritmlari va dasturiy ta’minoti asosida amalga oshirilgan joriy etish natijalari:

kompyuter tizimlarida ma’lumotlar oqimini monitoring qilishning produksion qoidalarga asoslangan algoritmlari asosidagi dasturiy vositasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Surxondaryo viloyat hududiy sho‘basida tarmoq oqimini monitoring qilishda hamda paketlarni tasniflash orqali tarmoqqa kirib keluvchi ma’lumotlarni tahlil qilib erta qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash vaqtini qisqartirish maqsadida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 26-sentabrdagi 07-07/8583-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dasturiy vositaga yuz mingdan ortiq tarmoq oqimi paketlari yuborilib, monitoring jarayonida ishlab chiqilgan algoritm o‘rtacha 7% ga erta qaror qabul qilish imkoniyatini bergan;

tadqiqot ishida tarmoqdagi kutilmagan holatlarni aniqlashda ishlab chiqilgan produksion qoidalar asosidagi algoritmi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 26-sentabrdagi 07-07/8583-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan algoritm ma’lumotlarni uzatishdagi kutilmagan holatlarni aniqlashda 7% ga yaxshiroq natija ko‘rsatgan;

shuningdek tarmoq oqimini monitoring qilishda hamda paketlarni tasniflash orqali tarmoqqa kirib keluvchi ma’lumotlarni tahlil qilib erta qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash vaqtini qisqartirish maqsadida Surxondaryo viloyatigi IT park Termiz filialida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 26-sentabrdagi 07-07/8583-sonli ma’lumotnomasi). Dasturiy vositaga bir milliontadan ortiq tarmoq oqimi paketlari yuborildi, monitoring jarayonida ishlab chiqilgan algoritm o‘rtacha 8% ga erta qaror qabul qilish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotlar natijalari 5 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan 8 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 3 ta xorijiy va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan hamda 7 ta EHM uchun dasturiy ta’minotlarga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati,

tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tarmoq oqimi ma’lumotlariga va Pcap fayllariga qayta ishlov berish usullari hamda dasturiy vositalari analitik tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, unda tarmoq oqimi ma’lumotlariga ishlov berishning tahlil usullari, oqim ma’lumotlarini qayta ishlashda dasturiy vositalar tahlili, oqim ma’lumotlari asosi bo‘lgan paket xususiyatlarni ajratishda pcap fayl tahlili va tarmoq oqimini real vaqtda tahlil qilish usullari tahlili keltirilgan. O‘rganish natijalari asosida solishtirma tahlil qilindi.

Paketlarni yozib olishda dasturiy vositalar quyidagi algoritmdan foydalanadi:

1. Paket oqimini aniqlashda tarmoqdan kelayotgan barcha paketlarni ketma-ketlik sifatida belgilanadi: $P_{pcap} = \{p_{pcap_1}, p_{pcap_2}, p_{pcap_3}, \dots, p_{pcap_n}\}$ bu yerda p_{pcap_i} i-paketning butun baytlar ketma-ketligini bildiradi.

2. Vaqt tamg‘asi qo‘yish har bir paket kelgan vaqtini belgilashdir. $V = \{v_1, v_2, v_3, \dots, v_n\}$ bu yerda v_i — paket p_{pcap_i} kelgan aniq vaqt (sekund va mikrosekundlarda) yozib qo‘yadi.

3. Pcap fayl tuzilmasi Global header qismi quyidagicha aniqlanadi. $H_g = (magic\_number, version\_major, version\_minor, thiszone, sigfigs, snaplen, network)$. Har bir paket $R_i = (ts\_\text{sec}_i, ts\_usec_i, incl\_len_i, orig\_len_i, p_{pcap_i})$ bu yerda $ts\_\text{sec}_i - v_i$ ning sekund qismi, $ts\_usec_i - v_i$ ning mikrosekund qismi, $incl\_len_i$ yozilgan paket uzunligi (baytlarda), $orig\_len_i$ asl paket uzunligi, p_{pcap_i} paketning xom bayt ma’lumotlari.

4. Saqlash algoritmi $PCAP = H_g \parallel \parallel_{i=1}^{n} R_i$ bu yerda $\parallel$ — ketma-ket qo‘shish amali hisoblanadi.

5. Algoritm bosqichlari tarmoq interfeysini promiscuous/monitor rejimga o‘tkazish $mode \leftarrow promiscuous$, global header yozish $write(H_g)$, har bir kelgan paket uchun vaqtni o‘lchash $v_i \leftarrow timestamp(p_{pcap_i})$, uzunliklarni hisoblash $incl\_len_i, orig\_len_i$, yozuv hosil qilish: $R_i \leftarrow (ts_{\text{sec}_i}, ts_{useci}, incl_{len_i}, orig\_len_i, p_{pcap_i})$, faylga qo‘shish $append(R_i)$, faylni yopish $close(PCAP)$.

Barcha dasturiy vositalar deyarli shu taxlit ishlaydi. Faqat ma’lumotlarni saqlash formati, interfeys ko‘rinishi bilan farq qiladi. Tarmoq oqimini tahlil qilish tarmoq paketlarini real vaqt rejimida ularning mazmuniga qarab yig‘ish, qayta ishlash, tasniflash, nazorat qilish va o‘zgartirish imkonini beruvchi texnologiyalar hisoblanadi. Tarmoq oqimini tahlil qilish vositalarini rivojlanishiga ko‘ra tahlil algoritmlari va yondashuvlarining rivojlanishiga ajratiladi. Tahlil qilish vazifani samarali hal qilish uchun dasturiy-apparat vositalarining rivojlanishi muhimdir.

Dissertatsiyaning **“Tarmoq oqimidagi informativ belgilarni tanlash va sinflashtirish algoritmlarini ishlab chiqish”** nomli ikkinchi bobida tarmoq oqimidagi informativ belgilar to‘plamini aniqlash uchun paket xususiyatlarini tahlil qilishda, tarmoq oqimi orqali o‘tuvchi paket xususiyatlari tahlil qilinib oqim sifatida shakllantirish algoritmlari ishlab chiqildi. Algoritmda paket ma’lumotlari olinadi va statistik xususiyatlari hisoblanadi. SummaryStatistics sinfi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi.



1-rasm. Pcap faylni o‘qish va paket xususiyatlarni ajratish algoritmi.

1-rasmdagi algoritmga ko‘ra pcap fayl strukturasi bo‘yicha global sarlavha, paket sarlavhasi va paket ma’lumotlari o‘qib olinadi. TCP flaglari $flags = \sum_{i=0}^{7} bit_i 2^i$ bilan hisoblanadi. Berilgan algoritm asosida global sarlavha ma’lumoti asosida pcap fayl turi aniqlanadi va nextPacket( ) metodi orqali har bir paket ma’lumotlari olinadi.



2-rasm. Tarmoq oqimini hosil qilish algoritmi.

Tarmoq oqimini hosil qilish 2-rasmda keltirilgan algoritm bo‘yicha amalga oshadi. Bunda, tahlil qilinayotgan paketlar oqim identifikatori bo‘yicha qaysi oqimga tegishli bo‘lsa, shu oqim ma’lumotlari yangilanib boradi.



3-rasm. Oqimni hosil qilish va csv faylga yozish algoritmi.

Paketlardan sessiya oqimlarini yig‘ish, tugallangan oqimlarni saqlash va ularning xususiyatlarini csv faylga yozish uchun 3-rasm keltirilgan algoritmdan foydalaniladi. Oqim tugallangan bo‘lsa csv faylga yozib boriladi, agar tugallanmagan bo‘lsa yangi paket oqimga qo‘shiladi. Jarayon pcap fayldan o‘qilgan paket ma’lumotlari tugamaguncha davom etadi.

Paketlar asosida klassikatsiya qilishda bitta paket bir vaqtning o‘zida bir nechta klassifikatsiya tushushi mumkin. Shuning uchun qoidalar ishlaganda ularga ustuvorlik berildi.

$$Aniq_{moslik} > prefiks_{moslik} > oraliq_{moslik} \quad (1)$$



4-rasm. Paketlarni tasniflash algoritmi.

Paket hajmlari bo‘yicha klassifikatsiya juda muhim ma’lumotlarni beradi. 4-rasmda paketlarni tasniflash algoritmi berilgan. Agar paketni 2-formuladagi kabi tartiblangan bo‘lsa paket hajm katta bo‘lsa, keyingi paket hajmlar esa tezlik jihatidan kamayib boradi. Agar bu jarayon sodir bo‘lmasa demak tarmoqda ehtimoliy hujum sodir bo‘lishi mumkin deb faraz qilishga sabab bo‘ladi.

$$L_{to‘plami} = \{l_1, l_2, \dots, l_n\} \quad (2)$$

Tarmoq oqimi ma’lumotlarini yig‘ib olish va tahlil qilishda birinchidan kirib kelayotgan tarmoq oqimi ma’lumotlarini ishlab chiqilgan dasturiy vosita yordamida yozib olindi. Yozib olingan ma’lumot pcap fayl formatida saqlanadi. Ikkinchidan pcap faylda saqlangan ma’lumotlar ishlab chiqilgan algoritm asosida o‘qib olinadi, o‘qilgan ma’lumotdan 89 xil xususiyatlar ajratib olinib csv fayl formatida qayta saqlanadi.

Csv fayldagi ma’lumotlar statistik tahlil algoritmlari orqali qayta ishlanadi va tekshiriladi. Statistik tahlil natijalari orqali markov zanjiri shakllantiriladi. Markov zanjiri holatlar to‘plamini belgilashda statistik tahlil natijalari muhim hisoblanadi.

Tasodifiy o‘zgaruvchilar ketma-ketligi $X_0, X_1, X_2, \dots$ ning qiymatlari $\{1,2, \dots n\}$ holat maydonida olinadi va ixtiyoriy $n \geq 0$ uchun $P_m = \left(p_{m_{ij}}\right)$, nxn matritsa mavjud bo‘lsa Markov zanjiri deyiladi. $X_0, X_1, X_2, \dots$ bu holatlar to‘plamini bildiradi.

$$P_m(X_{n+1} = j | X_n = i, X_{n-1} = i_{n-1}, \dots, X_0 = i_0) = P_m(X_{n+1} = j | X_n = i) = p_{m_{ij}}$$

P_m matritsa zanjirining o‘tish matritsasi deyiladi va $P_{m_{ij}}$ i dan j gacha o‘tish ehtimoli hisoblanadi. $p_{m_{ij}} = P_m(X_{n+1} = j | X_n = i)$ o‘tish ehtimoli $p_{m_{ij}}$ larni matritsa shaklida yozib olinadi va u quyidagicha:

$$P_m = \begin{bmatrix} p_{m_{11}} & p_{m_{12}} & \cdot & \cdot & \cdot & p_{m_{1n}} \\ p_{m_{21}} & p_{m_{22}} & \cdot & \cdot & \cdot & p_{m_{2n}} \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ p_{m_{n1}} & p_{m_{n2}} & \cdot & \cdot & \cdot & p_{m_{nn}} \end{bmatrix} \quad (3)$$

har bir qatordagi $p_{m_{11}}, p_{m_{12}}, \dots, p_{m_{1n}}$ o‘tish ehtimollari yig‘indisi $p_{m_{11}} + p_{m_{12}} + \dots + p_{m_{1n}} = 1$ ga teng bo‘lishi shart.

$$\sum_{j=1}^{n} p_{m_{ij}} = \sum_{j=1}^{n} P_m(X_{n+1} = j | X_n = i) = 1 \quad (4)$$

bu yerda qatordagi barcha imkoniyatlar birgalikda 100% ni tashkil etadi. Demak $X_0, X_1, X_2, \dots$ Markov zanjiri tashkil etsa bundan nxn P_m matritsaning t qadamdagi o‘tish ehtimoli $P_m(X_t = j | X_0 = i) = (P_m^t)_{ij}$ teng bo‘ladi. $X_0, X_1, X_2, \dots$ Markov zanjiri tashkil etsa bundan nxn P_m matritsaning X_0 ehtimollik taqsimoti 1 ga n o‘lchamdagi qator vektor π^T uchun ehtimollik taqsimoti $\pi^T P_m^t$ shaklida ifodalanadi.

$$X_0 = \pi^T \Rightarrow X_t = \pi^T P_m^t \quad (5)$$

Stasionar ehtimollik

$$\pi P_m = \pi \quad (6)$$

tashkil etadi. $\sum \pi_i = 1$ shart ham bajarilishi lozim, bunda jarayon qaysi holatda qancha vaqt qolish ehtimolini ko‘rsatadi.

Tarmoq oqimida kutilmagan holatlarni aniqlash uchun statistik xususiyatlardan foydalaniladi. Tahlil qilishda tarmoq oqimi uchun quyidagi statistik xususiyatlarni hisoblash amalga oshiriladi:

- namunaviy o‘rtacha:

$$m_i = \frac{1}{n}\sum_{j=i}^{i+n} S_j \tag{7}$$

bu yerda m_i o‘rtacha namunaviy qiymat, n tanlangan vaqt oralig‘idagi paketlar soni, $S_i - j$ vaqtdagi harakat intensivligining namunaviy qiymati, $j = i$ dan $i + n$ gacha bo‘lgan qiymatlar yig‘indisi olinadi.

- dispersiya:

$$D = \frac{1}{n-1}\sum_{j=i}^{i+n}\left(S_j - m_j\right)^2 \tag{8}$$

bu yerda D dispersiya, n — o‘rganilayotgan oyna uzunligi (nechta qiymat olingan), $S_i - j$ vaqtdagi intensivlik (paket soni, trafik hajmi), m_j o‘rtacha qiymati.

- assimetriya koeffitsienti:

$$K_a = \frac{\frac{1}{n}\sum_{j=i}^{i+n}\left(S_j - m_j\right)^3}{D^3} \tag{9}$$

bu yerda $S_i - j$ vaqtdagi qiymat (masalan, paket soni), m_i o‘rtacha qiymat, D dispersiya, n qiymatlar soni. Assimmetriya koeffitsienti statistik taqsimotning og‘irlik markazining siljishini ifodalaydi.

- kurtoz koeffitsienti:

$$K_k = \frac{\frac{1}{n}\sum_{j=i}^{i+n}\left(S_j - m_j\right)^4}{D^4} - 3 \tag{10}$$

bu yerda: $S_i - j$ vaqtdagi qiymat, m_i o‘rtacha qiymat, D dispersiya, n qiymatlar soni. Kurtoz yoki keskinlik koeffitsienti statistik taqsimotning cho‘qqisining balandligi yoki tepasining o‘tkirligini o‘lchaydi. Boshqacha aytganda, taqsimotdagi qiymatlar o‘rtachadan qanchalik uzoqlashmagan yoki shu atrofida to‘planganligini bildiradi.

- qarama-qarshilik koeffitsenti:

$$K_{oc} = \frac{1}{\sqrt{\eta}} \tag{11}$$

η ortiqcha parametr, quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta = K_k = \frac{\mu_4}{\sigma^4} \tag{12}$$

bu yerda σ - standart og‘ish (ya’ni dispersiyaning kvadrat ildizi), μ_4- to‘rtinchi markaziy moment (ya’ni barcha qiymatlarning o‘rtachadan 4-darajali og‘ishini o‘rtachasi). K_{oc} parametri 0 dan (Koshi taqsimoti bo‘yicha) 1 gacha (diskret ikki qiymatli taqsimot) o‘zgaradi. Oddiy taqsimot uchun $K_{oc} = \frac{1}{\sqrt{3}} \approx 0.577$.

Tarqatish shaklini tavsiflovchi yana bir parametr entropiya koeffitsienti hisoblanadi.

- entropiya koeffitsienti:

$$K_{en} = \frac{\Delta_\alpha}{\sigma} \tag{13}$$

bu yerda Δ_α - xatoning entropiya qiymati ya'ni taqsimotning noaniqlik darajasi, σ standart og'ish ya'ni o'rtacha qiymatdan chetlanish darajasini bildiradi.

$$\Delta_\alpha = \frac{1}{2} e^{H_h\left(\frac{a_h}{a_{h_n}}\right)} \tag{14}$$

bu yerda $H_h(\frac{a_h}{a_{h_n}})$ - a_h tasodifiy o'zgaruvchini o'lchash orqali kiritilgan entropiya (noaniqlik) o'zgarishi, e matematik doimiysi. Entropik xato shuni ko'rsatadiki, qanchalik taqsimotda noaniqlik kuchli bo'lsa, entropik xato ham shunchalik katta bo'ladi.

$$H_h(\frac{a_h}{a_{h_n}}) = \int_{-\infty}^{+\infty} p_h(X)\, ln\big(p_h(X)\big) dX \tag{15}$$

sifatida aniqlanadi, bu yerda $p_h(X)$ tasodifiy o'zgaruvchining ehtimollik zichligi.

Tekshirish uchun yozib olingan ma'lumotlari har xil vaqtda yozilgan. csv formatdagi fayllar birlashtirilgan. Bu ma'lumotlar asosida statistik tahlillash amalga oshiriladi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval.

Tarmoq oqimida kutilmagan holat natijalarining statistik tahlili.

№	Statistik tahlil usuli	Statistik tahlil natijasi
1	Namunaviy o'rtacha	$m_i = 1646.5714$
2	Dispersiya	$D = 9474632.51^2$
3	Asimmetriya koeffitsienti	$K_a = 2.463632$
4	Kurtoz koeffitsienti	$K_k = 8.352490$
5	Qarama-qarshilik koeffitsienti	$K_{oc} = 0.3516$
6	Etropiya koeffitsienti	$K_{en} = 1.6231$

Olingan statistik natijalar bo'yicha markov zanjiri baholanadi. Statistik tahlil natijasi bo'yicha markov zanjiri asosida baholashda birinchi X_0, X_1, X_2 holatlar to'plamini qurib olinadi. Uchta holat Markov zanjirining holatlari deb olindi va statistik tahlildan olingan ma'lumot asosida o'tish ehtimoli hisoblandi va 3-formula bo'yicha o'tish matritsasi qurildi.

$$P_m = \begin{bmatrix} 0.4 & 0.4 & 0.2 \\ 0.2 & 0.4 & 0.4 \\ 0.1 & 0.2 & 0.7 \end{bmatrix}$$

Stasionar ehtimollik 6-formula yordamida hisoblandi. Stasionar ehtimollik $\pi = [0.1852 \quad 0.2963 \quad 0.5185]$ ga teng bo'ldi.

Dissertatsiyaning **"Tarmoq oqimilarini bilimlar bazasidan foydalangan holda tahlil qilish va matematik ta'minotini shakllantirish"** deb nomlangan uchinchi bobi Petri tarmoqlari yordamida tarmoq oqimida TCP protokolining ishonchliligini tekshirishni, ma'lumotlar oqimini monitoring tizimining produksion modeli orqali oqimni tahlil qilishda bilimlar bazasini mantiqiy xulosalash samaradorligini oshirishga qaratilgan. Petri modeli asosida TCP protokolining umumiy tuzilishi 5-rasmda berilgan. Modelni ikkita asosiy qismga ajratish mumkin.

A qism va B qismga, shundan A qism TCP standart protokoli holat diagrammasiga mos ravishda yaratildi. B qism ham holat diagrammasini mos lekin belgilashda x prefiksida foydalanildi. Holat diagrammasini yoylarini esa Petri tarmog‘ining o‘tishlari bilan ifodalandi. Bunda positonlar $\{P_{p_i}\}, i = \overline{0,n}$ transitionlar $\{T_{t_i}\}, i = \overline{0,n}$ ko‘rinishida belgilab chiqildi. 2, 3-jadvallarda transition va position ta’riflari berilgan. Position sifatida TCP flaglari va qo‘shimcha sifatida yordamchi belgilashlar kiritilgan. Chunki qo‘yilgan masalada RFC 793 Petri modelini to‘liq qamrab olmaydi. Qolgan positionlar sifatida standart protokol holat diagrammasi belgilashlari olingan. Transition sifatida protokol qoidasidan kelib chiqib shartlar kiritilgan. Qo‘yilgan masala yechimiga kelish uchun ham qo‘shimcha shartlar keltirildi.

2-jadval.

Transition elementlaning tavsifi.

№	Transition	№	Transition	Ta’rifi
1	T_{t_0}	13	xT_{t_0}	Faol ulanish ochiq
2	T_{t_1}	14	xT_{t_1}	Passiv ulanish ochiq
3	T_{t_2}	15	xT_{t_2}	Ulanish so‘rovini yuborish
4	T_{t_3}	16	xT_{t_3}	Ulanish muvaffaqiyatli
5	T_{t_4}	17	xT_{t_4}	O‘rnatilgan ulanishda kutilmagan uzilish
6	T_{t_5}	18	xT_{t_5}	Dastlabki holatga qaytish
7	T_{t_6}	19	xT_{t_6}	O‘chirish so‘rovini yuborish
8	T_{t_7}	20	xT_{t_7}	Qonuniy uzilishni boshlash
9	T_{t_8}	21	xT_{t_8}	Qonuniy uzilish yuz berdi
10	T_{t_9}	22	xT_{t_9}	Yopiq
11	$T_{t_{10}}$	23	$xT_{t_{10}}$	Dastlabki holatga qaytish
12	$T_{t_{11}}$	24	$xT_{t_{11}}$	Tugash

3-jadval.

Position elementlarining tavsifi.

№	Position	Nomi	№	Position	Nomi
1	P_{p_0}	CLOSED	15	xP_{p_0}	xCLOSED
2	P_{p_1}	SYNSENT	16	xP_{p_1}	xSYNSENT
3	P_{p_2}	LISTEN	17	xP_{p_2}	xLISTEN
4	P_{p_3}	SYNRVD	18	xP_{p_3}	xSYNRVD
5	P_{p_4}	SYN	19	xP_{p_4}	xSYN
6	P_{p_5}	SYNACK	20	xP_{p_5}	xSYNACK
7	P_{p_6}	ESTABLD	21	xP_{p_6}	xESTABLD
8	P_{p_7}	RST	22	xP_{p_7}	xRST
9	P_{p_8}	FIN	23	xP_{p_8}	xFIN
10	P_{p_9}	FINACK	24	xP_{p_9}	xFINACK
11	$P_{p_{10}}$	LASTACK	25	$xP_{p_{10}}$	xLASTACK

12	$P_{p_{11}}$	FINWAIT1	26	$xP_{p_{11}}$	xFINWAIT1
13	$P_{p_{12}}$	FINWAIT2	27	$xP_{p_{12}}$	xFINWAIT2
14	$P_{p_{13}}$	TIMEWAIT	28	$xP_{p_{13}}$	xTIMEWAIT

TCP protokoli Petri modelini dekompozitsiya algoritmiga muvofiq funksional kichik tarmoqlarga bo‘lish dekompozitsiya algoritmini TCP protokoli modeliga tadbiq etish natijasida to‘rtta minimal funksional tarmoqdan iborat bo‘ldi. $Z^{1,1}, Z^{1,2}, Z^{2,1}, Z^{2,2}$ kabi belgilandi. Shuni ta’kidlash kerakki, tizimlar o‘zaro ta’sirining simmetriyasi tufayli quyi tarmoqlar juftliklari $Z^{1,1}$, $Z^{1,2}$ va $Z^{2,1}, Z^{2,2}$ izomorf hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu to‘rtta quyi tarmoqdan faqat ikkitasining xususiyatlarini o‘rganish yetarli hisoblanadi. Minimal funksional quyi tarmoqlarni yaratishning turli usullari modelni chap va o‘ng o‘zaro ta’sir qiluvchi Z^1 va Z^2 tizimlariga dekompozitsiyalandi, shuningdek ulanishni o‘rnatuvchi bilan kutilmagan uzilish va kutilmagan uzilish bilan odatiy uzilishni amalga oshiradigan tarmoqlarga Z'^1 va Z'^2 ga ajratish imkonini beradi. Bu yerda quyidagi bog‘liqliklar mavjud: $Z^1 = Z^{1,1} + Z^{1,2}, Z^2 = Z^{2,1} + Z^{2,2}, Z'^1 = Z^{1,1} + Z^{2,1}, Z'^2 = Z^{1,2} + Z^{2,2}$. Bu dekompozitsiya TCP protokoli modelining o‘zaro ta’sir qiluvchi tizimlari jarayonlarini alohida o‘rganish imkonini beradi.



5-rasm. TCP protokolini Petri modeli bo‘yicha dekompozitsiyalash.

4-jadval.

$Z^{1,1}$ va $Z^{1,2}$ kichik tarmoqlarning asosiy invariantlari.

$Z^{1,1}$ quyi tarmoq invarianti	$Z^{1,2}$ quyi tarmoq invarianti
1. $P_{p_0} \rightarrow P_{p_1} \rightarrow P_{p_6} \rightarrow P_{p_7}$ 2. $P_{p_0} \rightarrow P_{p_2} \rightarrow P_{p_3} \rightarrow P_{p_6} \rightarrow P_{p_7}$	1. $P_{p_0} \rightarrow P_{p_6} \rightarrow P_{p_7}$ 2. $P_{p_0} \rightarrow P_{p_6} \rightarrow P_{p_{10}}$

3. $P_{p_0} \to P_{p_6} \to P_{p_7} \to xP_{p_4}$	3. $P_{p_6} \to P_{p_8}$
4. $P_{p_0} \to P_{p_3} \to P_{p_6} \to P_{p_7} \to xP_{p_4}$	4. $P_{p_0} \to P_{p_6} \to P_{p_7} \to P_{p_{11}}$
5. $P_{p_0} \to P_{p_6} \to P_{p_7} \to xP_{p_5}$	5. $P_{p_6} \to P_{p_9} \to P_{p_{11}} \to P_{p_{12}}$
6. $P_{p_0} \to P_{p_7} \to xP_{p_5}$	6. $P_{p_0} \to P_{p_6} \to P_{p_{11}} \to P_{p_{12}} \to P_{p_{13}}$
7. $P_{p_0} \to P_{p_1} \to P_{p_7}$	7. $P_{p_9} \to xP_{p_8}$
8. $P_{p_4} \to xP_{p_4}$	8. $P_{p_0} \to P_{p_{13}} \to xP_{p_8}$
9. $P_{p_0} \to P_{p_3} \to P_{p_7} \to xP_{p_4}$	9. $P_{p_0} \to xP_{p_9}$

4-jadvalda keltirilgan positionlarning raqamlanishidan invariantlarni vektorlarga nisbatan matritsa shaklida ifodalanadi.

$$(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8, x_{19}, x_{20}) = (z_1^1, z_2^1, z_3^1, z_4^1, z_5^1, z_6^1, z_7^1, z_8^1, z_9^1) * G^{1,1},$$
$$(x_1, x_7, x_8, x_9, x_{10}, x_{11}, x_{12}, x_{13}, x_{14}, x_{23}, x_{24}) =$$
$$= (z_1^2, z_2^2, z_3^2, z_4^2, z_5^2, z_6^2, z_7^2, z_8^2, z_9^2) * G^{1,2} \quad (16)$$

endi $G^{1,1}$ va $G^{1,2}$ matritsa ko‘rinishiga keltiriladi.

$\overline{x}$ vektorining $Z^{1,1}$ va $Z^{1,2}$ quyi tarmoqlariga mos keladigan komponentlari yozilgan va ulardan tuzilgan matritsalar ustunlarini indekslashni belgilaydi. Qator indekslari vektor komponentlariga mos keladi.

$$G^{1,1} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 \end{vmatrix}$$

$$G^{1,2} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix}$$

$\overline{z}^1 = (z_1^1, z_2^1, z_3^1, z_4^1, z_5^1, z_6^1, z_7^1, z_8^1, z_9^1)$ va $\overline{z}^2 = (z_1^2, z_2^2, z_3^2, z_4^2, z_5^2, z_6^2, z_7^2, z_8^2, z_9^2)$. Taqdim etilgan yechimlar 16 ta chunki 2-qator 3-qator va 6-qator yig‘indisi, 3-qator 6-qator va 7-qatorlar yig‘indisidi. Demak, TCP protokoli Petri modelida p_{p_i}-invariantdir, 1, 5 va 9 bazis invariantlarining yig‘indisi bo‘lgan invariant

$x = (8 \quad 5 \quad 1 \quad 3 \quad 3 \quad 1 \quad 5 \quad 9 \quad 2 \quad 1 \quad 2 \quad 2 \quad 1 \quad 2 \quad 5 \quad 1 \quad 1 \quad 1)$

barcha tabiiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun protokol modeli konservativ va cheklangan tarmoqni ifodalaydi. Vaqt murakkabligi 2^q tartibli bo‘lsin, bu yerda q – tarmoq cho‘qqilari soni.

$$\frac{2^{14}}{2^{10} + 2^{11}} = \frac{2^{14}}{2^{10} * (1 + 2)} = \frac{2^4}{3} \approx 5$$

TCP ulanishini o‘rnatish va tugatish bosqichlarida kutilmagan nosozliklarni aniqlash va tekshirish uchun Petri net modelini ishlab chiqish va tekshirish amalga oshirildi. TCP protokolining tarmoqdagi roli va uning ishonchlilik xususiyatlari tahlil qilindi. TCP modelining to‘g‘riligi va ishonchliligi Petri tarmog‘ining invariantlarini hisoblash yo‘li bilan tekshirildi. Modelning real tarmoq sharoitida TCP protokolining ishlashiga ta’siri baholandi.

